TEXNOLOGIK TA’LIMNI O‘QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA TUSHUNCHASI VA ASOSIY TAMOYILLARI

Yaxshiboyev Temur-Malik - Guliston davlat pedagogika institute Aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Dildora Yaxshiboyeva - Guliston davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi

Yangi pedagogik texnologiyalarni loyihalash va ulardan ta’lim tarbiya jarayonida foydalanish ma’lum qonuniyatlarga asoslanadi. Bu asoslar pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos jihatlarini ifoda etadi va metodikadan farqli tomonlarini ko‘rsatib beradi. Boshqacha aytgada, ularni pedagogik texnologiya prinsiplari deb atash mumkin.

Prinsip - yunoncha «prinsipium» so‘zidan olingan bo‘lib, asos, dastlabki holat, boshqaruvchi g‘oya, umumlashgan talab kabi ma’nolarni anglatadi. Didaktikada olimlar prinsiplarni turlicha talqin qilishadi: pedagogik holatni yo‘lga soladigan didaktik holatlar, tavsiyalar (V.I.Zagviyazinskiy, L.I.Grisenko), o‘qitishning me’yoriy asoslari (M.A.Danilov), didaktik maqsdga erishish usullari (I.A.Lerner) va xokazo.

Biz pedagogik texnologiya prinsiplari deganda loyihalangan o‘quv tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda yuqori natijalarga erishish uchun rioya qilinadigan umumiy me’yorlar va talabalarni tushunamiz. Demak, u yoki bu pedagogik xodisa prinsip bo‘lishi mumkin, qachonki uni o‘quv jarayonida hisobga olish (rioya qilish) zarur bo‘lsa, ya’ni unga tayanilsa.

Pedagogik texnologiya prinsiplari didaktik prinsiplardan tubdan farq qiladi va o‘zida muhim sifat ko‘rsatkichlarini mujassamlashtiradi.

Ta’lim prinsiplari o‘quv-tarbiya jarayoniga qo‘yiladigan ijtimoiy talablar, ta’limni tashkil etish va boshqarishda rioya qilinadigan qoidalar sifatida amal qilinadi.

Ta’lim prinsip (tamoyil)lari o‘quv-tarbiya jarayonining barcha komponentlariga, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga, barcha o‘quv predmetlarini o‘qitish masalalariga daxldor umumiy talablar, qoidalardir. Prinsiplar umumdidaktik kategoriya bo‘lib, ular ta’limning barcha turlari: (individual, guruh, umumsinf), darajalari (boshlang‘ich, o‘rta, o‘rta maxsus, oliy), sub’ektlari (o‘qituvchi, o‘quvchilar jamoasi), o‘quv-tarbiya jarayonining hamma komponentlari (ta’limning maksadi, vazifasi, natijalariga dahldor umumiy qoidalardir.


Ta’lim tamoyillari quyidagilar

- kafolatlangan yakuniy natija, ta’limning mahsuldorligi, to‘g‘ri va teskari aloqaning mavjudligi;
- ta’lim maqsadining aniq shakllanganligidan iborat.

Texnologiya kishilar tomonidan qandaydir vazifalarni bajarishda turli xil usullar ko‘rinishini ifodalaydi.

Pedagogik texnologiya tamoyillarining o‘ziga xos xususiyatlari Ilmiylik tamoyili bu tamoyil har qanday o‘quv predmeti, o‘quv materiali fanining zamonaviy yutuqlariga tayanishi lozimligini ko‘rsatadi. Ushbu tamoyil, eng avvalo o‘quv dasturlar, o‘quv qo‘llanmalar va dasturlarni yaratish jarayonida amalga oshiriladi.

Loyihalanish tamoyili bu tamoyil, pedagogik texnologiyaning eng muhim xususiyatlaridan birini belgilaydi.



Loyihalanish tamoyili - bu o‘quv jarayonini tashkil etish, hujjatlarini - o‘quv jarayoni grafigi; ishchi o‘quv reja; fanning ishchi o‘quv dasturi; fanning, bo‘limlarning, tayanch iboralarining o‘quv maqsadlari toifalari; o‘qitish jarayoni texnologiyasi, egallangan bilim va malakalarni baholash - oldindan yaratishni anglatadi.

Tizimlilik tamoyili pedagogik texnologiya, o‘quv jarayonining barcha elementlarini qamrab olishi bilan alohida ajralib turadi. Tizimlilik tamoyilining mohiyati shu bilan ifodalanadi. O‘quv jarayonining barcha elementlari, ularning o‘zaro bog‘liklik sharti asosida yagona tizim kabi loyihalanadi. Bunda o‘quv jarayonning barcha elementlari tuzilmasi, tashkil etilishi va faoliyati - talabalarni o‘qitishga rag`batlantiradi.

Maqsadga yo‘naltirilganlik tamoyili o‘quv jarayoni maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Maqsad ham qonun kabi odamning xarakteri va harakat usulini aniqlashi zarur. Buning uchun o‘rnatiladigan maqsad, aniq va o‘lchaniladigan bo‘lishi shart.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Bizga yaxshi ma’lumki, har bir fan o‘zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega.

Aynan mana shu holat uning fan sifatida e’tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta’minlash, ta’lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta’lim

(o‘qitish, o‘qish), bilim, ko‘nikma, malaka, ma’lumot va rivojlanish. Shaxs – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti- harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyat a’zosi.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ta’lim – o‘quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayon.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma’lum obrazlar ko‘rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui. Ko‘nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati. Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli. Ma’lumot – ta’lim-tarbiya natijasida o‘zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui. Rivojlanish **–** shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ta’lim texnologiyalari Sh.S.Shoyimova, M.K.Xoshimova, Sh.R.Mirzayeva, M.M.Qo‘ziboyeva Toshkent-2020

2. Boymatov, N.M. (2023). Ta’limni axborotlashtirish jarayonida oliy ta’lim professor-o‘qituvchilarining korporativ madaniyatini shakllantirish. Экономика и социум, (11 (114)-1), 83-88.

3. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi B.Qurbonov, M.Latipov, M.Muxliboyev, Guliston 2022